

Maqola nomi: Tarkibiy o'zgarishlar orqali davlat kapitalizmining tarixiy tahlili: O'zbekiston misolida

Asl maqola nomi: An historical analysis of state capitalism through structural transformation: the case of Uzbekistan

Muallif: Lorena Lombardozi

Manba: Lorena Lombardozi (2023): An historical analysis of state capitalism through structural transformation: the case of Uzbekistan, Globalizations, DOI: 10.1080/14747731.2023.2221094

Nashriyot: Informa UK Limited, trading as Taylor & Francis Group

Doimiy havola: <https://doi.org/10.1080/14747731.2023.2221094>

Mazkur maqola Deniz Kandiyoti ruxsati bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Ushbu ruxsat uchun samimiy minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Tarjima O'zbekistonda gender zo'ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan mustaqil media-loyiha **Nemolchi.uz** tashabbusi doirasida amalga oshirildi. Ushbu loyiha jamiyatda strukturaviy zo'ravonlik, ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari haqidagi bilimlarni keng jamoatchilikka, shu jumladan, o'zbek tilida ham yetkazishni maqsad qilgan.

Tarjimon: Nodira Ibrohimova

Tarjima sanasi: 2026-yil

Tarjima Shveytsariyaning O'zbekistondagi Elchixonasi ko'magida tayyorlangan.

Tarjimadan foydalanish shartlari:

Mazkur tarjimani erkin o'qish, ta'limiy va ilmiy maqsadlarda foydalanish mumkin, biroq bunda asl manba va asl nashrga havola ko'rsatilishi shart. Tarjimonning ismi va **Nemolchi.uz** loyihasi ko'rsatilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Tarkibiy o'zgarishlar orqali davlat kapitalizmining tarixiy tahlili: O'zbekiston misolida

Lorena Lombardozi

Buyuk Britaniya

ANNOTATSIYA. Tarkibiy o'zgarishlar past va o'rta daromadli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashdagi muhim vosita sifatida keng e'tirof etiladi. Biroq uning o'zgartiruvchi samarasi ko'pincha davlat tomonidan amalga oshiriladigan qo'shimcha qiymatning yaratilishi va taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu maqola O'zbekistonda davlat boshqaruvidagi jamg'arish tizimlari haqidagi tushunchani kengaytirish orqali sohaga uch yo'nalishda hissa qo'shadi. Birinchidan, u bugungi tarkibiy o'zgarishlar strategiyalarini tushunish uchun sotsialistik dastlabki jamg'arish va davlat boshqaruvidagi jamg'arish bo'yicha munozaralar o'rtasidagi nazariy aloqalarni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, u ijtimoiy agentlar va manfaatlar davlat boshqaruvidagi jamg'arishning hukmron mantig'i doirasida o'zaro ta'sirga kirishadigan vaqtlararo va kontekstual tuzilmalarni o'rganish zarurligini ilgari suradi. Nihoyat, maqola O'zbekiston misolidan foydalanib, davlat boshqaruvidagi jamg'arishning neoliberalizmgancha bo'lgan va neoliberal shakllari tarkibiy o'zgarishlarning o'ziga xos ijtimoiy va iqtisodiy natijalariga qanday olib kelganini ko'rsatib beradi.

MAQOLA TARIXI. Qabul qilingan: 2021-yil 7-noyabr. Ma'qullangan: 2023-yil 30-may.

KALIT SO'ZLAR: Bozorga o'tish; davlat kapitalizmi; jamg'arish; tarkibiy o'zgarishlar; O'zbekiston.

1. Kirish

So'nggi 30 yil ichida, 1989-1991-yillar oralig'ida Sovet Ittifoqi qulagandan so'ng, biz postsovet hududida o'sishga erishishning turlicha yo'llarini kuzatdik. Bir tomonda, shok terapiyasi deb ataluvchi usul bo'lib, u xususiy sektor yetakchiligidagi jamg'arishga qaratilgan tezkor va bir yo'nalishli harakat bilan tavsiflanadi (Ellerman, 2003; Weber, 2021). Shok terapiyasi to'plami narxlarni erkinlashtirish, fiskal qat'iylik orqali inflyatsiyani nazorat qilish, savdo ochiqligi va davlat aktivlarini bozorlashtirishdan iborat edi (Gevorkyan, 2018). Garchi ayrimlar hukumat xarajatlari yuqori bo'lib qolgani va davlat hali ham qayta taqsimlovchi vazifasini bajarganini ta'kidlasa-da (Sachs, 1992), jamg'arish modellari keskin

xususiylashtirildi, xususiy yo‘qotishlar ijtimoiylashtirildi va tengsizlik kuchaydi. Boshqa tomondan, ayrim mamlakatlar bunday bozorga asoslangan ko‘rsatmalarni rad etishdi. Bretton-Vuds institutlari (Xalqaro moliya institutlari) bosimiga qarshilik ko‘rsatib, ular xususiylashtirish va erkin savdoga nisbatan ehtiyotkorona yondashuvni qabul qildilar hamda strategik milliy aktivlarda davlat boshqaruvidagi jamg‘arishni saqlab qoldilar (Fine & Filho, 2014; Wade, 2018).

Sovet hududidan tashqaridagi mashhur misol – Xitoy, ammo XX asrning 1960-1970-yillari davomida taraqqiyot davlatining boshqa namunalari ham kuzatilgan (Amsden, 2001). Osiyo yo‘lbarzlari hisoblangan Janubiy Koreya, Gonkong, Singapur va Tayvan, shuningdek, Afrikadagi Keniya va Kot-d'Ivuar, Lotin Amerikasidagi Chili va Braziliya davlat mulkchiligi va boshqaruvi shakllari (Davlat korxonalari – DK) orqali ayrim sohalarni xususiylashtirishdan himoya qildilar (Chang & Nolan, 1995; Mkandawire, 2001; Wade, 2018). Ushbu yo‘llar o‘shini ta’minlashda davlatning rolga oid qarama-qarshi mafkuraviy va nazariy tushunchalarga asoslangan edi. Bu kurashda g‘alaba shok terapiyasiga nasib etdi, uning g‘alabasi 1980-yillar boshida AQSh va Buyuk Britaniyadagi konservativ hukumatlar tomonidan ommalashtirilgan neoliberal davrning yuksalishiga to‘g‘ri keldi. Biroq ushbu kurashning soyada qolgan ishtirokchisi, ya’ni davlat boshqaruvidagi jamg‘arish yoki davlat kapitalizmi yetarlicha o‘rganilmasdan qoldi. Biz uning tarkibiy o‘zgartirish salohiyati hamda jamg‘arilgan qo‘shimcha qiymat ijtimoiy natijalarni yaxshilash uchun qanday va qay darajada qayta taqsimlanishi mumkinligi haqida juda kam bilimga egamiz.

Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida, mazkur maqolaning birinchi hissasi Sovet Ittifoqidagi sotsialistik dastlabki jamg‘arish muhokamasini davlat boshqaruvidagi jamg‘arish bo‘yicha zamonaviy bahslar bilan bog‘lashdan iboratdir (Bremmer, 2008; De Graaff, 2012; Van Apeldoorn va boshq., 2012). Ularning qo‘shimcha qiymatni jamg‘arish bo‘yicha davlat boshqaruvidagi strategiyalarga qaratilgan umumiy e‘tiborini tahlil qilish davlat kapitalizmining davrlashtirilishi va turlari bo‘yicha ilmiy qarashlarni boyitadi (Hall & Gingerich, 2009). Garchi Sovet Ittifoqi davlat boshqaruvidagi jamg‘arishning yirik tajribasi hisoblansa-da, uning global kapitalistik rivojlanishga nisbatan tarixiy va makoniy aloqalari kam o‘rganilgan. Shu nuqtai nazardan, maqola davlat boshqaruvidagi jamg‘arishning raqobatlashuvchi ijtimoiy manfaatlar va tarmoqlararo o‘zgartiruvchi taqsimot bilan qanday bog‘liqligini ham yoritib beradi. Qo‘shimcha qiymat manbalarining qanday undirilgani va jamg‘arishning qanday hosil qilinganiga e‘tibor qaratib, u vaqt o‘tishi bilan xususiy foyda, xalq va davlat institutlari o‘rtasidagi daromadlar taqsimotini baholaydi.

Shunday qilib, iqtisodiy o‘tish davrini bozorlashtirish va xususiy mulkchilikning neytral va bir yo‘nalishli jarayoni sifatida tushunish o‘rniga, davlat boshqaruvidagi jamg‘arish davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos taqsimot va rivojlanish natijalarini belgilab beruvchi shakllarini yuzaga keltirishi

ta'kidlanadi. O'zbekiston siyosiy elitasi o'zining iqtisodiy va siyosiy mavqeyini himoya qilish bilan birga, mahalliy davlat boshqaruvidagi jamg'arishni barqarorlashtirish uchun moliyaviy kapitalning nazoratsiz kirib kelishining oldini oldi. Ichki (endogen) jamg'arish va davlat muvofiqlashtiruvchi tarmoqlararo transferlar orqali uzoq muddatli tarkibiy o'zgarishlar jarayonini boshlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

2-bo'lim postsovet hududida davlat boshqaruvidagi jamg'arishning tarixiy xususiyatlarini muhokama qiladi. 3-bo'lim O'zbekistondagi tarkibiy o'zgarishlarni davlat boshqaruvidagi jamg'arishning neoliberalizmga bo'lgan namunalari orqali tahlil qiladi. 4-bo'lim O'zbekistonning neoliberal bozorlashtirish jarayonida davlat boshqaruvidagi jamg'arishning davomiyligi va uzilishlarini bayon etadi. 5-bo'lim xulosa yasaydi.

2. Postsovet hududida davlat boshqaruvidagi jamg'arishning davrlashtirilishi

Merriam-Webster lug'atida davlat kapitalizmi xususiy kapitalizmning hukumat mulkchiligi va nazoratining turli darajalari orqali o'zgartirilgan iqtisodiy tizim sifatida ta'riflanadi. Nima uchun davlat kapitalizmi yana global taraqqiyot kun tartibiga qaytdi (Alami va boshq., 2021; Bremmer, 2008)? Chunki, u iqtisodiy nomutanosibliklar va samarasizlikni keltirib chiqarishda ayblansa-da (Schiff & Valdes, 1998), o'n yillik empirik dalillar shuni ko'rsatdiki, davlat rejalashtirishi va jamg'arishning aralash shakllari uyg'unligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi mumkin (De Graaff, 2012). Shu bois, tarix davomida yuzaga kelgan davlat boshqaruvidagi jamg'arishning o'ziga xos (kontekstual) shakllarini e'tirof etish foydalidir. Ushbu bo'lim sovet hududidagi sotsialistik dastlabki jamg'arish va XX asrdagi davlat boshqaruvidagi jamg'arish o'rtasidagi asosiy davomiylik va uzilishlarni aniqlashga qaratiladi. Unda ularning tarixiy va institutsional o'ziga xosliklari hamda rivojlanish va taqsimotga oid natijalari muhokama qilinadi.

2.1. Davlat boshqaruvidagi jamg'arishning neoliberalizmga bo'lgan shakllari

Davlat kapitalizmi 1900-yillarning boshlarida qizg'in muhokama qilingan mavzu edi. Bolsheviklar davlat kapitalizmini kommunizmga olib boruvchi zaruriy bosqich deb bilishgan. Lenin buni ishlab chiqarishning sotsialistik transformatsiyasini ta'minlash uchun kapitalizm rivojlanishini to'g'ri o'zanga solishdagi zaruriy qadam deb hisoblagan (Lenin, 1921). Buxarin bozorlashtirish sotsialistik jamg'arish uchun o'ta muhim bo'lgan yirik sanoat salohiyatini cheklab qo'yadi, deb hisoblagan (1921). 1920-yillarda Preobrajenskiy tomonidan resurslar transferi orqali qo'shimcha qiymatni jamg'arish uchun soliq manbalarini tushunishga doir muhim nazariy hissa qo'shilgan.

Preobrajenskiy uchun dastlabki sotsialistik jamg'arish — bu "moddiy resurslarning asosan yoki qisman davlat iqtisodiyoti majmuasidan tashqaridagi manbalardan davlat qo'lida to'planishi edi (Millar, 1978, 389-bet). Sovet Ittifoqida xalqaro savdo yoki mustamlakalardan resurslarni o'zlashtirish orqali jamg'arish dinamikasini ishga tushira oladigan mahalliy xususiy kapital mavjud emas edi: Agar kapitalistik dastlabki jamg'arishning asosiy manbai mustamlakalar bo'lsa, Sovet davlatining yagona tashqi manbasi bu – nosotsialistik qishloq edi (Preobrajenskiy, 1965; Millar, 1978). Sotsialistik jamg'arish kapitalistik iqtisodiyotning qo'shimcha qiymati hisobiga [sanoatni kengaytirish uchun dehqonlarni soliqqa tortish orqali] amalga oshirilishi kerak edi (Preobrajenskiy, 1965).

Ushbu jamg'arish jarayoni foyda olishga asoslangan munosabatlarni emas, balki sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishga harakat qildi (Harrison, 1985). Darhaqiqat, garchi sovet ishlab chiqarish usuli kapitalizmdagi kabi hukmron sinfga mehnatni ekspluatatsiya qilish imkonini bergan bo'lsa-da (Resnick & Wolff, 1993), u raqobatga asoslangan kapital mulkining bo'linib ketishiga (dispersiyasiga) yo'l qo'ymadi (Amin, 2016, 46-bet). Global xususiy bozorlardan kuchli himoyalani davlatga industrilashtirishni jadallashtirish uchun asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari ustidan egalik va nazoratni saqlab qolish imkonini berdi. Davlatning o'ziga xos aralashuvi tarmoqlararo qo'shimcha qiymat transferini shakllantirdi. Qishloq xo'jaligi qo'shimcha qiymatni undirib olishning asosi bo'lgan (Gabor, 2020; Kay, 2009; Lewis, 1954; Lombardozi, 2019, 2021). Agrar aktivlarni, jumladan, yer va oziq-ovqat narxlarini markazlashgan holda rejalashtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini soliqqa tortish davlat boshqaruvidagi jamg'arish modelining asosiy elementlari edi.

Narx qaychisi tarmoqlararo qo'shimcha qiymatni undirib olish mexanizmini yaratish orqali kapital shakllanishini industrilashtirish sari yo'naltira oldi (Lewis, 1954; Lin & Li, 2008; Mundle, 1985). Boshqacha aytganda, tengsiz almashinuv tarkibiy o'zgarishlarni moliyalashtirish uchun sof qishloq xo'jaligi qo'shimcha qiymatini yaratish barobarida fermerlar daromadini siqib chiqardi. Masalan, Xitoy 1978 va 1989-yillar oralig'ida don ta'minotiga nisbatan (qisman) davlat xaridi kvotasini saqlab qolgan holda, siklga qarshi aralashuvlar orqali don narxini tartibga solib turdi. Ikki yo'lakli tizim orqali don narxini barqarorlashtirishdan ko'zlangan maqsad umumiy iqtisodiyotdagi narxlarni barqaror saqlash edi (Tsang, 1996; Weber, 2021).

Agrar tovar narxlarining makroiqtisodiyotdagi roliga nisbatan ikki xil nazariy talqin ishlab chiqilgan. Bir tomondan, foydaga asoslangan yondashuv shuni ta'kidlaydiki, ikki xil narx tizimi sanoat ish haqining hamda oziq-ovqat narxlarining pasayishiga imkon berish orqali sanoat jamg'arishini rag'batlantiradi, bunda qo'shimcha qiymat dehqonlardan ham, yollanma ishchilardan ham undirib olinadi (Bhaduri & Marglin, 1990). Boshqa tomondan, Kaleski oziq-ovqat narxlarining inflyatsiyasi sanoat tovarlariga bo'lgan talabning shakllanishiga to'sqinlik qilishini ta'kidlab, bunday

siyosatni yoqlagan (1955, 29-bet). Uning o'rniga u sanoat ish haqini oshirish tarafdori edi. Shu bois, narxlar shok terapiyasi doktrinasidagi kabi bozordagi taqchillik yoki mo'llik signallari sifatida emas, balki ishlab chiqarish va iste'molga tatbiq etiladigan qayta taqsimlash vositasi sifatida tushunilgan (Weber, 2021).

Davlat boshqaruvidagi jamg'arish holatlari sovet hududidan tashqarida ham paydo bo'ldi. Mualliflar 1960 va 1970-yillarda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi taraqqiyot davlati holatlarini (Amsden, 2001; Wade, 2018), shuningdek, G'arbiy Yevropadagi farovonlik davlati modellarini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Davlat taraqqiyot davlati deb ta'riflandi, chunki iqtisodiy va siyosiy munosabatlar barqaror industrilashtirishni qo'llab-quvvatlagan (Chang, 2009). Global Janubning mustaqillikka erishgan ayrim yangi mamlakatlarida xususiylashtirish o'z-o'zidan maqsad bo'lmagan. Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatning taraqqiyot strategiyasi asosida shakllantirilgan (Mkandawire, 2001). Import o'rnini bosuvchi industrilashtirish, strategik tarmoqlarga davlat egaligi yoki nazorati (Davlat korxonalari), davlat xaridlari va davlat tomonidan moliyalashtirish hamda eksport marketing kengashlaridan dinamik foydalanish orqali strategik sektorlarda raqobatni cheklash maqsadida xususiy kapitalga tartibga solish choralari joriy etildi (Kurlantzick, 2016; Mkandawire, 2001).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TGI) qabul qiluvchi mamlakat ehtiyojlarini qondira olmaydi deb qaralgan, chunki olinadigan foyda suveren davlatning sanoat salohiyatini barpo etishdek uzoq muddatli maqsadlaridan ajratilgan bo'ladi (Chang & Andreoni, 2021; Tsang, 1996). TGI va mahalliy kapital masalasida Kornai (1992) "yaxshi" xususiy xaridorni topish zarurligini ta'kidlaydi (Gevorkyan, 2018), bu esa kapitalistlar sinfining millatiga oid savollarni o'rta tashlaydi.

Shuningdek, moliyaviy repressiya yangi banklar va sug'urta kompaniyalari kabi boshqa moliya institutlarining bozorga kirishi ma'lum darajada siyosiy mustaqillikka ega bo'lgan Markaziy bank tomonidan qat'iy nazorat qilinishini va boshqarilishini anglatardi. Xususiy jamg'arish sekin kechayotgan sharoitda moliya sektorini erkinlashtirishni kechiktirish moliyaviy o'sish hisobiga bo'lsa-da, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan edi. Moliya sektori ustidan davlat monopoliyasi tarqoq va beqaror xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi orqali kapitalning cheklangan mavjudligini xavf ostiga qo'ymasligi kerak edi (Palley, 2005). Uy xo'jaliklari omonatlarini markazlashtirish va arzon kreditlar ajratish imkonini beruvchi ushbu tizim hukumat daromadlarini strategik tarmoqlardagi yangi (yoki eski) korxonalarga yo'naltirdi. Moliyaviy repressiyani amalga oshirishning yana bir sababi daromad solig'ining samarali sxemasini boshqarish imkoniyati yo'qligi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvidagi jamg'arishning asosiy urg'usi davlat sektorini xususiy sektordan kattaroq saqlashga hamda qisqa muddatda samaradorlik

va bozor raqobatiga e'tibor bermagan holda qo'shimcha qiymatni jamg'arishga qaratilgan. Davlat rejalashtirishi va davlat-xususiy jamg'arishning aralash shakllari jamg'arish modellarida kamroq beqarorlikka olib keldi va bozorlashtirishning maydalashuvi (atomizatsiyasi)ning oldini oldi (Lombardozi, 2019). Qayta taqsimlash nuqtai nazaridan, sog'liqni saqlash, uy-joy, dam olish va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ko'pincha bozorni singdirishga (market embedding) qarshi turish uchun davlat korxonalariga biriktirilgan edi (Haberly & Wójcik, 2017, 258-bet; Polanyi & MacIver, 1944). Darhaqiqat, xususiy bozor agentlari jamoaviy ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olmasdan harakat qilar ekan, suv, oziq-ovqat yoki uy-joydan foydalanish kabi ijtimoiy va asosiy insoniy ehtiyojlarni kafolatlashda oqsashlari mumkin. Biroq empirik dalillar shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvidagi dastlabki jamg'arish ko'pincha kapital to'plash va o'z qo'shimcha qiymatini tarkibiy o'zgarishlar va keng qamrovli ijtimoiy rivojlanish uchun tarmoqlararo taqsimlash salohiyatini to'liq ishga solib bo'lgan. Ayrim hollarda, oziq-ovqat ishlab chiqarishga nisbatan qo'llanilgan tengsiz almashinuv dehqonlar uchun juda qimmatga tushdi. Masalan, bu 1958-1962-yillardagi Maochilar Xitoyida va 1932-yilda Sovet Ittifoqida yuz bergan ocharchiliklarning kelib chiqishiga hissa qo'shdi. Shu sababli, xususiy jamg'arish kapitalistik ishlab chiqarish usuli, ya'ni bozorlashtirish va mulkdan mahrum qilish orqali qo'shimcha qiymat yaratish uchun zarur deb qaraladi (Sidel, 2015).

Garchi ba'zilar sotsialistik dastlabki jamg'arish Xitoy muvaffaqiyatining izohlovchi strategiyasi bo'lganini ta'kidlasa-da (Cheng, 2020), hatto Xitoy ham faqat ichki ishlab chiqarish va iste'mol qilish qobiliyati orqali cheksiz o'sishdan foyda ko'ra olmasdi. Kapitalizmning tabiatan kengayish xususiyati tufayli milliy davlatlar tashqi bozorlarga (Day, 1975) yoki xorijiy moliyalashtirish manbalariga muhtoj bo'ladi. Marks xalqaro bozorni o'z jamg'arish modellarini kengaytirishning asosiy manbai sifatida belgilagan (Millar, 1978). 1990-yillarda Sovet dunyosining qulashi ikki qutbli mafkuraviy tartibning tugashini anglatardi, bu tartibda davlat jamg'arishi qay darajadadir o'z qonuniyligini topgan edi. Neoliberal globallashuv boshlandi va davlat jamg'arishining qoldiq shakllari xalqaro kapital oqimlari, tovarlar va texnologiyalarning jadallashuvi bilan to'qnash keldi, bu esa tartibga solinadigan savdo va milliy iqtisodiy suverenitet davriga yakun yasadi (Alami & Dixon, 2020; Kotz, 2002). Keyingi bo'limda men hozirgacha kuzatilgan shakllar o'rtasidagi davomiylik va farqlarni yoritish uchun davlat boshqaruvidagi jamg'arishning zamonaviy shakllarining tasodifiy holatlarini tahlil qilaman.

2.2. Neoliberalizmning soyada qolgan ishtirokchisi: XXI asrda davlat kapitalizmi

Zamonaviy global kapitalistik iqtisodiyotda davlat boshqaruvidagi jamg'arish har doim ham o'tgan asrdagi kabi sotsialistik mafkura bilan bog'liq bo'lmaydi, biroq u hamon tarkibiy o'zgarishlarni barqarorlashtirishda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi (Bremmer, 2010). U iqtisodiy suverenitet g'oyasidan ilhomlangan hamda

milliy bandlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni qamrab oluvchi sanoat siyosati orqali ilgari suriladi. Bunday yondashuv hukmron xalqaro boshqaruvning globallashuv tendensiyalariga zid kelishi mumkin. Uning ahamiyati tan olingach, zamonaviy o'ziga xosliklari va cheklovlarini tushunish muhimdir. Birinchi cheklov kapital hisobvaraqlarini erkinlashtirish (Charnock & Starosta, 2016) hamda ko'p tomonlama va mintaqaviy erkin savdo bitimlarining ko'payishi orqali global moliyaviy va tijorat arxitekturasiga rioya qilish bosimi bilan ifodalanadi. Zamonaviy global iqtisodiy boshqaruv soliqqa tortiladigan ishlab chiqarish (masalan, qishloq xo'jaligi tovarlari) ustidan fiskal nomutanosibliklar va davlat monopsoniyasini joriy etishni deyarli imkonsiz qiladi. Natijada, milliy iqtisodiyot narx (va ish haqi) raqobati hamda xususiy kapital jamg'arilishi (va kredit) nuqtai nazaridan tashqi bosimlarga ochiq bo'lib qoladi. Bunday yangi tasodifiy holatlar ko'plab past va o'rta daromadli mamlakatlarni quyidagi masalalarni hal qilishda faqat bozorga asoslangan vositalar bilan yuzma-yuz qoldirdi: (a) mamlakat ichkarisida mavjud bo'lmagan texnologiyalardan foydalanish va mehnatning yangi xalqaro taqsimoti doirasida ish o'rinlari yaratish uchun Global Qiymat Zanjirlariga (GQZ) integratsiyalashuv (Nolke, 2014); (b) global shimolda to'plangan va/yoki Xalqaro moliya institutlari (XMI) tomonidan boshqariladigan kapital moliyalashtirishga biriktirilgan qarz va unga bog'liq bozorparast shartlar; (c) yuqoridagilarning natijasi o'laroq, milliy ishlab chiqarish salohiyatini ochib berish maqsadida xususiy jamg'arilmalar va kamroq ekspluatatsiya qilinadigan ish o'rinlarini yaratish orqali milliy ichki talabni rag'batlantirish. Shunga qaramay, bozorlashtirish va erkin savdoga asoslangan ushbu neoliberal to'lqinga qaramasdan, ayrim davlat institutlari saqlanib qoldi va ular davlat boshqaruvidagi jamg'arish orqali global kapitalning kengayishida vositachilik qilish imkoniyatini taqdim etmoqda. Bunga misollar davlat moliyasi (Alami & Dixon, 2020), shuningdek, sanoat siyosati (Chang & Andreoni, 2021) va infratuzilma (Alami va boshq., 2021) bilan bog'liq.

So'nggi yigirma yil ichida, ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda Davlat korxonalari (DK) eng yirik va tez kengayayotgan transmilliy kompaniyalarga aylandi (Karwowski, 2019). Xalqaro moliya institutlari korporativ boshqaruv mezonlariga rioya qilingan taqdirda, davlat korxonalari bozor qonuniyligiga ega ekanligini tan oldilar (Gabor, 2020). Ushbu davlat institutlari global bozorda faoliyat yuritadi, biroq ular qisqa muddatli foyda va korporativ moliyalashtirish tamoyillari asosida boshqarilmaydi. Energetika va infratuzilma kabi strategik tarmoqlarda davlat mulkchiligini saqlab qolish orqali Xitoy kabi mamlakatlar (2000-yillarda Argentina, Ekvador va Boliviyaning energetika sektorida ham milliylashtirish yuz bergan (De Graaff, 2012)) sanoatlashgan savdo hamkorlari bilan savdo shartlarini yaxshiladilar, ish o'rinlari yaratdilar va ijtimoiy-iqtisodiy bo'shliqlarni bartaraf etish barobarida texnologiyalar transferini amalga oshirdilar (Lo & Zhang, 2011; Nolan, 1995; Weber, 2021).

Suveren boylik jamg'armalari (Sovereign Wealth funds – SWF) pensiyalar va milliy investitsiyalar daromadlarini oshirish uchun real va moliyaviy aktivlardagi zaxiralar

va qo'shimcha qiymatni boshqaradi (Kattel va boshq., 2021). Shuningdek, taraqqiyot va davlat banklari uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini ko'zlagan holda sanoat salohiyatini kengaytirishni moliyalashtiradi (Alami & Dixon, 2020). Norvegiya, Germaniya va Yaponiya kabi ba'zi mamlakatlarda bunday taraqqiyot banklari XX asrdan omon qoldi (Kattel va boshq., 2021). Ushbu banklar erkinlashtirilgan moliya tizimlarida faoliyat yuritadi, biroq milliy sanoat maqsadlarini, shu jumladan milliy xususiy biznesni qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirish uchun qulay kredit shartlariga asoslangan maqsadli moliyaviy dasturlarni ishga tushira oladi. Ular tijorat banklariga qaraganda pastroq foiz stavkalarini qo'llaydi va sanoat ishlab chiqarishida potensial g'oliblarni tanlab oladi. Shuningdek, ular korporativ qarzlar va bandlikdagi zarbalarni (shoklarni) keltirib chiqaruvchi kapital oqimi o'zgaruvchanligi xavfini minimallashtiradi.

Davlat-kapital gibridlarining bunday uyg'unligi orqali, masalan, Xitoy globallashtirish tartibiga integratsiyalashgan holda davlat ishlab chiqarishiga sarmoya kiritish va uzoq muddatli rejalashtirish orqali davlat boshqaruvidagi jamg'arishni rag'batlantirdi. Xitoyning aralash iqtisodiyoti shuni ko'rsatadiki, tarkibiy o'zgarishlarning barqaror jarayonlari keskin xususiylashtirish va erkinlashtirishga asoslangan ko'r-ko'rona o'tish davriga tayana olmaydi. Bunday institutlar qo'shimcha qiymat yaratish va uni transfer qilishda muhim rol o'ynaydi. Garchi Xitoy o'z ichki bozorining hajmidan kelib chiqib, Transmilliy korporatsiyalar (TMK) bilan texnologiyalar transferi bo'yicha muzokaralarda kuchli ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi noyob o'ziga xoslikka ega bo'lsa-da, ushbu maqola ancha kichikroq iqtisodiyot ham o'z iqtisodiyotini shunga o'xshash yo'nalishlarda boshqarganini ko'rsatib beradi. Xitoy davlat korxonalarini neoliberal kapitalistik bozor ichida raqobatlashadi, lekin hali ham hukumatning "kattasini ushla, kichigini qo'yib yubor" (zhua da fang xiao) qabilidagi xususiylashtirish yondashuviga mos keladi (Gabor, 2020). Keyingi ikki bo'limda men O'zbekistondagi davlat jamg'arishining neoliberalizmga bo'lgan va neoliberal bosqichlaridagi uzilishlar va davomiylilikni tadqiq qilaman. Tahlil ma'lumotlar bazalari va siyosiy hujjatlar kabi ikkilamchi ma'lumotlar hamda 2015 va 2021-yillar oralig'ida mamlakatda o'tkazilgan kuzatuvlar va manfaatdor tomonlar bilan intervyularni o'z ichiga olgan birlamchi ma'lumotlar uyg'unligiga asoslanadi.

3. O'zbekistonda davlat boshqaruvidagi jamg'arishning dastlabki 25 yili davomida tarkibiy o'zgarishlar: mustaqillikdan 2016-yilgacha

O'zbekiston siyosiy iqtisodini uning Sovet merosidan va 1991-yilda erishilgan siyosiy mustaqilligidan ajralgan holda tahlil qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Xitoydan farqli holat hisoblanadi, chunki institutsional shok nafaqat bozor bilan yuzlashish, balki Sovet Ittifoqidan mustaqil bo'lishni ham o'z ichiga olgan edi. Birinchi kundan boshlab 2016-yilning sentabriga qadar rahbarlik qilgan marhum prezident Karimov xuddi sobiq Sovet Ittifoqi davrida Moskvada ta'lim olgan aksariyat vazirlar va davlat boshqaruvchilari kabi, SSSRdagi O'zbekiston Kommunistik partiyasining sobiq

rahbari bo'lgan. Bu faktlar yangi mustaqil O'zbekiston hukumatining hukmron sinfi orasida nafaqat intellektual davomiylikni, balki hokimiyat davomiyligini ham ko'rsatadi.

Markaziy Osiyodagi besh davlat (Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston) bo'yicha ko'plab tadqiqotlar ularning siyosiy iqtisodini neopatrimonial yondashuvdan foydalangan holda, ushbu elita tomonidan boylik va hokimiyatning egallab olinishi (capture) orqali tahlil qilgan (qarang: Buranelli, 2021). Ushbu qarashga ko'ra, ularning rejimni saqlab qolishga intilishi har qanday iqtisodiy va siyosiy ochiqlik imkoniyatlariga to'sqinlik qilgan. Korrupsiya, rentaga intilish (rent-seeking) va siyosiy qatag'on hodisalarini inkor etmagan holda, ushbu maqola bunday siyosiy tuzilma barqaror va o'zgartiruvchi jamg'arish jarayonlarini shakllantirganmi yoki yo'qmi va agar shakllantirgan bo'lsa, qanday amalga oshirilganligini o'rganish uchun geterodoks institutsional yondashuvni (Andreoni, 2022; Khan & Jomo, 2000) qabul qiladi. Tarkibiy o'zgarishlar dinamikasi davlatning jamg'arishni qanday shakllantirganini tahlil qilish uchun foydali vosita hisoblanadi, chunki ular ishlab chiqarish vositalari, qo'shimcha qiymat va mahsulotlardan foydalanish, ularni ta'minlash va taqsimlash usullarini yoritib beradi.

Liberal demokratiya modellariga moslashishni sekinlashtirganiga qaramay, bunday siyosiy tuzilmaning barqarorligi milliy strategik resurslarni nazorat qildi va hatto noaniq (shaffof bo'lmagan) usullar bilan tartibga solingan bo'lsa-da, tarqoq xorijiy kapitalning yirtqichlarcha raqobati xavfini bartaraf etdi. Garchi Karimov hukumati jamg'arishning sotsialistik yo'lini hech qachon rasman e'lon qilmagan bo'lsa-da, quyidagi muhokama shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvidagi (dastlabki) jamg'arish dinamikasi siyosiy deklaratsiyalar orqali emas, balki iqtisodiy amaliyotlar, ayniqsa qishloq xo'jaligidagi amaliyotlar orqali davom etgan. Bu tarmoqlararo muvofiqlashtirilgan investitsiyalarni rejalashtirish va tarkibiy o'zgarishlar jarayonini ishga tushirish uchun sharoit yaratdi. Natijada, Jahon banki ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligidagi bandlik 1995-yildagi 41 foizdan 2019-yilda 26 foizga tushdi, aholi jon boshiga YaIM barqaror o'sdi, umumiy YaIM esa 1989-2012 yillarda ikki baravardan ko'proqqa oshdi (Popov & Chowdhury, 2015), qashshoqlik aholining 37 foizidan 10 foizigacha kamaydi va 1-rasmda ko'rsatilganidek, qo'shimcha qiymat barcha tarmoqlar bo'ylab o'sdi.

Mustaqillikning dastlabki yigirma yilida O'zbekiston hukumati mamlakat o'sishini asosan ikki yo'l bilan moliyalashtirdi. Birinchidan, oziq-ovqat bo'lmagan qishloq xo'jaligi ekinlari, ya'ni paxtaga nisbatan narx va fiskal nomutanosibliklar orqali, ikkinchidan, xomashyo eksporti hisobiga valyuta jamg'arish orqali (Lombardozi, 2019). 1990-yillarda xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik korxonalardan boshlab bosqichma-bosqich va tanlov asosida xususiyalashtirish boshlandi. Energetika, tabiiy resurslar va infratuzilma davlat tasarrufida qoldi, shuningdek, fermerlarga yoki fermerlar klasterlariga ijaraga berilgan yerlar ham davlat mulki bo'lib qoldi.

Shuningdek, savdo aloqalari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TGI) geografiyasi JSST doirasidagi ko'p tomonlama erkin savdo bitimlarini qabul qilishdan ko'ra, mintaqaviy mamlakatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarga asoslandi, bu esa savdo siyosati suverenitetini saqlab qolish va import o'rnini bosuvchi industrlashtirishni amalga oshirishga yordam berdi. O'zbekiston bank sektoridagi cheklovlar (repressiya) investitsiya dasturlarini amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynadi, chunki xorijiy kreditlar yirik davlat banklari orqali yo'naltirildi (Akimov & Dollery, 2006). Valyuta tushumlarining asosiy qismi O'zbekiston Milliy banki (TIF Milliy banki) va bir nechta suveren jamg'armalar tomonidan boshqarilgan. Valyuta cheklovlari va moliyaviy repressiya hukumatga kapitalning chetga chiqib ketishini tartibga solishda yordam berdi.

Nihoyat, sog'liqni saqlash va ta'limga yuqori xarajatlar bir xil daromad darajasidagi boshqa mamlakatlarga nisbatan (JB ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilda YaIMning 5,6 foizi va 6,3 foizi) ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirishga imkon berdi va yuqori tengsizlik xavfini jilovladi. 2018-yilda davlat iste'moli YaIMning taxminan 22-23 foizini tashkil etdi va bu ko'rsatkich neoliberal siyosatni qabul qilgan aksariyat past va o'rta daromadli mamlakatlarga, jumladan Qozog'iston, Meksika, Hindiston va Misrga qaraganda yuqori darajada saqlab qolindi (JB ma'lumotlari).

1990-2000-yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi narx nomutanosibliklari va davlat monopsoniyasini tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha milliy tarmoqlararo strategiyaning ajralmas qismi deb hisoblash mumkin. 2016-yilda erkinlashtirish boshlangunga qadar, turli ekinlar atrofida davlat boshqaruvidagi (dastlabki) jamg'arish tartiblari xilma-xil (geterogen) edi: qo'shimcha qiymatni undirib olishning eng yuqori darajasida davlatning asosiy ekin paxta turardi. Hukumat valyuta olish uchun uning eksportini nazorat qilardi. O'rta darajada bug'doy bo'lib, u ham ishlab chiqarish jarayonida subsidiyalanar va tartibga solinar edi, lekin hukumat fermerlarga erkin bozor kvotasini sotish, iste'mol qilish yoki ayirboshlashga ruxsat bergan edi. Bozor darajasida esa to'liq bozorlashtirilgan meva va sabzavotlar turardi. Davlat paxta va bug'doydan qanday va nima uchun qiymat undirib olganini ko'rib chiqish o'rinlidir.

3.1. Paxta – qo'shimcha qiymatni undirib olish manbai sifatida

Kirish va chiqish resurslari narxlarini erkinlashtirishni hamda davlat xarid idoralarini tugatishni ilgari surgan shok terapiyasi yondashuvidan farqli o'laroq, mustaqillikdan keyin o'zbek paxtasi davlat boshqaruvida qoldi va u davlat boshqaruvidagi (dastlabki) jamg'arishning asosiy manbaiga aylandi. O'zbekiston Amerika fuqarolar urushi AQShdan Rossiyaga paxta importiga to'sqinlik qilganidan so'ng, Sovet Ittifoqining paxta bazasiga aylangan edi. Shunday qilib, O'zbekiston Ittifoqdagi paxtaning 70 foizini yetishtiruvchiga aylandi (Melvin, 2004). 1991-yilgi mustaqillikdan so'ng, paxta sektori O'zbekiston YaIMning taxminan 25 foizini, shu

jumladan yengil to'qimachilik sanoati (2,1 foiz), kimyo, o'g'itlar va neft mahsulotlari esa 0,5 foizini tashkil etdi (Muradov & Ilkhamov, 2014).

Paxta yetishtiruvchilar qariyb 90 foizli davlat xarid kvotasiga bo'ysunar edilar. Bu orqali ular soliqqa tortilardi (xarid narxini o'rtacha bozor narxidan pastroq belgilash orqali), ammo shu bilan birga subsidiyalanardi ham, chunki hukumat ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishda imtiyozlar berardi (Muradov & Ilkhamov, 2014). Osiyo taraqqiyot banki (2004) hisob-kitoblariga ko'ra, 2002 va 2003-yillar oralig'ida paxtadan undirib olingan qo'shimcha qiymat YalMning qariyb 10 foizini tashkil etib, 1,04 milliard AQSh dollarini (yoki gektariga 350 dollarni) hosil qilgan. Ushbu mexanizmlar mahalliy ma'muriyat ichida klientelizm va korrupsiyaning rivojlanishiga hissa qo'shdi. Biroq O'zbekiston hukumati tomonidan markazlashgan paxta eksporti orqali fermerlar mahsulotidan undirib olingan qo'shimcha qiymat, proteksionizm (himoyachilik) siyosati bilan birgalikda, uzoq muddatli o'sishni ta'minlash uchun tarmoqlararo yoki tarmoq ichidagi iqtisodiy investitsiyalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy valyuta jamg'arishga xizmat qildi. Ushbu manzarada, yerga davlat ekinlari orqali ega bo'lmagan ayollar va kambag'al dehqon xo'jaliklari ayniqsa ekspluatatsiya qilindi (Lombardozi, 2022). O'zbekiston sharoitida qishloq sinflari haqiqatan ham davlat ekinlari asosida shakllangan (Lombardozi, 2020). Qishloq kambag'allari ko'pincha mamlakatni tark etib Rossiyaga ketdilar va pul o'tkazmalari orqali katta daromad manbaini ta'minladilar, bu esa davlat jamg'arishi uchun qiymatni undirib olishning bunday usuli xarajatlarini qoplashga yordam berdi.

Hukumat fermadan paxta terminallarigacha bo'lgan logistika va transport masalalari bilan shug'ullangan, u yerda paxta qayta ishlangan va eksport qilingan. Ushbu davlat xarid tizimi paxta ishlab chiqarish bilan bog'liq uzilishlarni, masalan, mavsumiylik, notekis ishchi kuchi talabi va qishloq xo'jaligi texnikasidan samarasiz foydalanish kabilarni (Marx, [1867] 1976, 174-176-betlar) bartaraf etib, kirish va chiqish resurslari uchun masshtab samarasini ta'minladi. Ushbu omillar narxlar va ta'minotning o'zgaruvchanligiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa fermerlar farovonligiga salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu davlat boshqaruvidagi ishlab chiqarish paxta ta'minotining kirish va chiqish resurslari uchun barqaror narxlar va uyg'unlashtirilgan sifat standartlari holatidan gorizontaal muvofiqlashtirishning yemirilishi, xalqaro narxlar tebranishi va moliyaviylashuv ta'siriga tushish hamda xalqaro xususiy savdogarlarning ichki bozorda nazorat mavqeini egallash xavfi mavjud bo'lgan tarqoq bozorlashgan tuzilmaga o'tib ketishining oldini oldi. Natijada, 2000-yillarda O'zbekiston dunyoda beshinchi yirik eksportchi va oltinchi yirik paxta ishlab chiqaruvchisi bo'ldi (YUNKTAD hisoboti, 2015). 2018-yilgacha u yiliga taxminan bir million tonna paxta tolasini eksport qildi, bu 1 milliard AQSh dollariga to'g'ri keladi va xalqaro narxlarga qarab, umumiy eksport tushumining qariyb 11 foizini tashkil etadi. Minerallar va gaz bilan birgalikda, u to'lov balansini to'ldirish va industrilashtirish

uchun tarkibiy investitsiyalarni amalga oshirishda zarur bo'lgan xorijiy valyutaning muhim manbai bo'lib xizmat qildi.

3.2. Narx barqarorligi uchun bug'doy

Bug'doy mustaqillikdan so'ng O'zbekiston hukumati (GOU) tomonidan yer va ishchi kuchini paxtadan ommaviy ravishda boshqa tomonga yo'naltirish hisobiga joriy etildi (Veldwisch & Spoor, 2008) va u paxtadan keyin mamlakatda ishlab chiqariladigan, davlat tomonidan boshqariladigan ikkinchi ekinga aylandi (FAOSTAT). Kvotalar, xarid narxlari va maqsadli ko'rsatkichlar hukumat tomonidan har yili belgilanardi. Yaqinda amalga oshirilgan erkinlashtirishga qadar, "O'zdonmahsulot" don zanjirining xarid qilish, taqsimlash va saqlash bosqichlarida ishtirok etuvchi hamda urug'lik, kredit, transport va sifat nazoratini ta'minlovchi davlat agentligi bo'lgan. Fermerlar bug'doyni un, non va yem ishlab chiqaruvchi davlat tegirmonlari, zavodlari va novvoyxonalariga yetkazib berardilar. Bug'doy o'g'itlar, texnika, urug'lik, ekstension (maslahat) xizmatlar, suv, yer va arzon kreditlar uchun ajratiladigan subsidiyalarga ega edi (Bobojonov va boshq., 2013). Ishlab chiqarishning birinchi yilida eksport taqiqlandi. Bundan tashqari, bug'doy yetishtiruvchi fermerlar ko'p turdagi xatarlardan ixtiyoriy sug'urtalash rejimidan foydalandilar (Bobojonov va boshq., 2013).

1992-yilda boshlangan milliy don o'zini-o'zi ta'minlash va qishloqni rivojlantirish bo'yicha hukumat strategiyasining bir qismi bo'lgan ushbu siyosat, O'zbekiston hukumati tomonidan mustaqillikdan beri amalga oshirilgan eng intervensionistik (aralashuvchi) siyosatlardan biri hisoblanadi (Lombardozi & Djanibekov, 2021). Biroq, oziq-ovqat ekinlari bo'yicha Sovet davridagi tengsiz almashinuvdan farqli o'laroq, mahalliy bug'doy ta'minotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bug'doy importiga qaramlikni sezilarli darajada kamaytirdi, ta'minot yetishmovchiligiga qarshi turdi, fermerlar daromadini bilvosita qo'llab-quvvatladi va kirish resurslari narxlarini nazorat qilish orqali ulardan barqaror foydalanishni ta'minladi (Bobojonov va boshq., 2013; Kotz, 2002).

Subsidiyalanadigan don ishlab chiqarish ish haqi inflyatsiyasiga bo'lgan bosimni yumshatishga hissa qo'shdi va shu tariqa shahar va sanoat ishlab chiqarishini bilvosita subsidiyaladi (Kalecki, 1955; Lewis, 1954), shuningdek, 2007-2008-yillardagi oziq-ovqat inqirozi davrida narxlarning keskin oshib ketishining oldini oldi. Minimal narxlar va subsidiyalar davlat uchun fiskal yukni anglatardi, bu esa ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni rag'batlantirmasligi mumkin edi. Shunga qaramay, agar to'g'ri ishlab chiqilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligidagi nomutanosibliklar, fermerlarni soliqqa tortish va ularning biznes rentabelligini cheklashiga qaramay, narxlar va ishlab chiqarishni barqarorlashtirishga hissa qo'shadi (Chang, 2009), fermerlar daromadini bozor o'zgaruvchanligidan himoya qiladi va asosiy iste'mol tovarlari taklifini oshiradi (Ellerman, 2003).

Nihoyat, siyosiy va oziqlanish nuqtai nazaridan o'ta sezgir tovar bo'lganligi sababli, bunday intervensionistik siyosat iste'molchilarni himoya qilgan holda, bug'doyni saqlash, maydalash, tashish va tarqatishda foyda izlovchilarning potentsial spekulyatsiyasining oldini oldi. Boz ustiga, unumdorlik pasaymadi. Fermerlarda ko'proq ishlab chiqarish uchun rag'bat bor edi, chunki ular davlat tegirmonlari oldidagi xarid majburiyatlarini bajarganlaridan so'ng, qolgan hosilni xususiy bozorga qimmatroq narxda sotishlari mumkin edi (dala tadqiqotlari ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, 2015-yilda bug'doy yetishtiruvchilarning 90 foizdan ortig'i hosilning 50 foizigacha bo'lgan qismini mahalliy bozorga tonnasini 800-1200 so'mdan sotgan yoki ishchilar uchun natura shaklidagi to'lov sifatida ishlatgan).

Rasmiy va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha bug'doy hosildorligi 2013-yilda 3,8 t/ga dan 4,8 t/ga gacha oshdi. Aholi jon boshiga bug'doy ishlab chiqarish 0,04 tonnadan 0,23 tonnagacha o'sdi. Bundan tashqari, O'zbekiston aholisi 1992-yildagi 21 milliondan 2015-yilda 30 millionga yetdi, bu esa yuqori demografik bosimdan dalolat beradi. Bu shuni anglatadiki, so'nggi 13 yil ichida oziq-ovqatga bo'lgan ichki talab uchdan bir qismga oshgan. Oziq-ovqat ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biridir, shu sababli ishlab chiqarish, muomalaga chiqarish va iste'mol bosqichlaridagi uzilishlar rejalashtirish orqali maqsadli ravishda minimallashtirildi. Ushbu taklif o'sishi teng taqsimlangan deb hisoblashdan yiroq bo'lsak-da, ushbu siyosatni amalga oshirish davrida oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari keskin yaxshilandi, ayniqsa bolalarda bo'y o'sishining to'xtab qolishi va vazn yetishmasligi holatlari ikki baravar kamaydi (FAO, 2017). Shunday qilib, qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvidagi qo'shimcha qiymatni undirib olish mexanizmlari va jamiyat bo'ylab sekin sur'atdagi qayta taqsimlash, oziq-ovqatga bo'lgan asosiy ehtiyojni kafolatlash orqali transformatsiya jarayonini ijtimoiy jihatdan maqbul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotladi.

3.3. Davlat boshqaruvidagi jamg'arish orqali O'zbekistonning tarkibiy o'zgarishlari

Qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvidagi dastlabki jamg'arish mexanizmlari, bozor nomutanosibliklari va ichki don xavfsizligi mustaqillik va bozorga o'tishning nozik jarayonini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi davlat siyosati bo'lib keldi. Bunday davlat boshqaruvidagi jamg'arish strategiyasi natijasida YaIM o'sishi va joriy hisob profitsiti (ortiqchasi) qarzдорlikning tez sur'atlar bilan pasayishiga olib keldi, xususan, tashqi qarz 2001-yildagi YaIMning 64 foizidan 2015-yilda 15,8 foizgacha keskin kamaydi. Tashqi qarzga xizmat ko'rsatish qiyinchiliksiz amalga oshirildi, bu esa iqtisodiyotni bozor islohotlariga doir global neoliberal bosimlardan himoyaladi. Joriy hisob balansi 2015-yilda YaIMning 0,9 foizi darajasida saqlab qolindi va mintaqadagi eng yaxshi ko'rsatkichlardan biri sifatida muttasil yaxshilanib bordi. Qishloq xo'jaligidan davlat boshqaruvida qo'shimcha qiymatni undirib olishning ushbu tizimi hukumatga xorijiy valyuta olish, don suverenitetini mustahkamlash va iqtisodiyotni xalqaro narxlar o'zgaruvchanligidan himoya qilish imkonini berdi.

Shunday qilib, xarid qilish, subsidiyalash va soliqqa tortishning bunday mexanizmlari qishloq aholisi zimmasiga inkor etib bo'lmaydigan yuk yuklagan bo'lsa-da, ijtimoiy jihatdan ijobiy natijalarga ham ega bo'ldi. Bu hali ham qishloq joylarda istiqomat qiluvchi O'zbekiston aholisining 60 foizi uchun oziqlanish va qashshoqlik ko'rsatkichlarini yaxshilashga hissa qo'shdi va bu borada to'laqonli bozorga yo'naltirilgan paketlarga amal qilgan mamlakatlardagi ko'rsatkichlardan o'zib ketdi (Popov & Chowdhury, 2015).

Narx qaychisi orqali davlat paxta va bug'doy yetishtiruvchi fermerlardan qo'shimcha qiymatni undirib oldi, biroq ularni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minladi. Bayres (2003, 69-73-betlar) ta'kidlaganidek, eng muvaffaqiyatli qishloq xo'jaligi transformatsiyasi, garchi notekis va kamsituvchi xarakterga ega bo'lsa-da, arzon subsidiyalar, kredit va narxlarni barqarorlashtirish sxemalariga tayangan. Davlat ekinlari orqali yaratilgan qo'shimcha qiymat qo'shilgan qiymatni oshirish va tarmoqlararo ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish maqsadida mexanizatsiyalash va texnologik innovatsiyalarga qayta investitsiya qilindi. Qishloq xo'jaligini industrilashtirish sanoat va xizmat ko'rsatish sektori bilan oldinga va orqaga yo'naltirilgan aloqalarni yaratish orqali yuz berdi (Hirschman, 1958). Shu bois, tarkibiy o'zgarishlar natijalari keng qamrovli iqtisodiy o'tish davrida qishloq xo'jaligiga berilgan rolga nisbatan tahlil qilinishi kerak (Kay, 2009). Preobrajenskiy (1965) nazariy asoslab berganidek, mustamlakachi Britaniya kabi qo'shimcha qiymat undirib olishning tashqi manbalari mavjud bo'lmagan taqdirda, sotsialistik dastlabki jamg'arish, garchi majburlovchi va tengsiz bo'lsa-da, kapital jamg'arishga va shu orqali uzoq muddatli o'sishga erishishning bir usuli hisoblanadi (Saith, 2013).

Mustaqillikdan keyingi O'zbekiston hukumati siyosiy barqarorlikni saqlash, demakki, qishloq aholisi turmush tarzini qo'llab-quvvatlash zarurligini anglagan edi. Bu holat o'zining qo'shimcha qiymatini tarmoqlararo investitsiya qilish jarayonida shaharliklar tomonidan qo'llab-quvvatlashga putur yetkazmadi (chunki u oziq-ovqat va boshqa asosiy ehtiyojlarni kafolatladi). Biroq, ushbu nozik muvozanat izolyatsionizm (yakkalanish) evaziga amalga oshirildi, bu esa 25 yildan so'ng uning jamg'arish hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni o'stirish salohiyatini to'liq sarflab bo'lishiga olib keldi.

4. 2016-yildan keyingi davr: O'zbekistonning tarkibiy o'zgarishlari va neoliberal globallashtirishga ochilishi

O'zbekistonning tarkibiy o'zgarish modellari 2000-yillarning boshlarida jadallashdi, ammo 2016-yilga kelib ichki tengsiz almashinuv kapitalistik o'sishning kengayishi va o'zini o'zi takrorlashi uchun yetarli bo'lmay qoldi. Bu holat Mirziyoyev davrining boshlanishiga to'g'ri keldi. 2016-yil sentabrida Karimovning vafotidan so'ng o'z mandatini qo'lga kiritgan yangi Prezident bozor islohotlariga qat'iy sodiqligini namoyish etdi. Mirziyoyev O'zbekiston iqtisodiyotini Davlat-

xususiy sheriklik va qo'shma korxonalar orqali xususiy va noxususiy investorlarga ochish yo'li bilan bozorga o'tish jarayonini tezlashtirdi. Xorijiy investitsiyalarni, Xitoy Davlat korxonalarini (DK) va xususiy firmalarni jalb qilish uchun yangi savdo shartnomalari va Maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Mirziyoyevning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga bo'lgan intilishi avtomobilsozlik sektorida yaqqol ko'zga tashlandi; bu soha 2000-yillarda (Popov & Chowdhury, 2015) texnologiyalar transferini amalga oshirish va import o'rnini bosish maqsadida rivojlantirilgan strategik, ko'p ishchi kuchi talab qiladigan (labour-intensive) sektor hisoblanadi. GM Chevrolet va Jizzaxdagi Volkswagen bilan davomiy hamkorlikdan tashqari, respondentlar Hyundai (Rodeo Ltd orqali), Lada hamda boshqa Xitoy va AQSh hamkorlari mamlakatda faoliyat boshlaganini tasdiqladilar. 2017-yil 12-yanvarda Mirziyoyev O'zbekistonning turli viloyatlarida – Samarqand, Buxoro, Farg'ona va Xorazmda (Urgut, G'ijduvon, Qo'qon va Hazorasp) erkin iqtisodiy zonalarini (EIZ) tashkil etish to'g'risidagi farmonni imzoladi. Ular 30 yil muddatga, uzaytirish imkoniyati bilan tashkil etildi. Investorlar bir qator soliqlarni to'lashdan ozod qilindi. Masalan, agar investor 3 million AQSh dollarigacha sarmoya kiritisa, imtiyozlar uch yilga beriladi; 3 milliondan 5 million dollargacha sarmoya kiritish besh yillik soliq imtiyozlari kafolatini belgilaydi; 5 milliondan 10 million dollargacha bo'lsa, investor yetti yillik imtiyozlarga ega bo'ladi. 2017-yilda valyuta bozorining erkinlashtirilishi valyuta qadrsizlanishiga olib keldi va kurs 1 AQSh dollari uchun 4210 so'mdan 8100 so'mgacha o'zgardi. O'zbekiston Markaziy banki foydani repatriatsiya qilishni osonlashtirish maqsadida barcha eksport tushumlari bo'yicha valyutani majburiy sotish talablarini bekor qildi. Shuningdek, sement, minerallar, oraliq tovarlar, paxta, bug'doy, non va energiya narxlarini tartibga solishni bekor qilish to'liqini kuzatildi. Inflyatsiyani yumshatish va raqobatbardoshlikni oshirish uchun bojxona tariflari pasaytirildi (Jahon banki, 2018). Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tuzildi va 2000-yilda hukumat xususiylashtirishni tezlashtirish uchun bir qator monopoliyaga qarshi qonunlarni qabul qildi. O'sha yillarda aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish bo'yicha raqobatli tenderlar e'lon qilindi.

Mamlakat fond birjasi hali ancha kichik, ammo tez o'smoqda, bunga qo'shni Qozog'istonning xalqaro moliya markazini ishga tushirgani ham sabab bo'lib, bu O'zbekistonni o'z kapitalini chegaralar ichida saqlab qolish uchun o'z fond bozorini ishga tushirishga undamoqda. Moliya bozori deregulyatsiya qilindi va mamlakatda yangi mahalliy va xorijiy tijorat banklari o'z faoliyatini boshladi. Ko'chmas mulk bozorini jonlantirish uchun shahar yerlari xususiylashtirildi. Ko'plab tabiiy resurslar, asosan oltin, mis va uran DKlar tomonidan boshqariladi, neft va gaz esa xalqaro investorlar ishtirokida tobora ko'proq qazib olinmoqda, biroq taqsimlash va uzatishda strategik davlat ulushi saqlab qolinmoqda. Bunga Rossiyaning Lukoil va Gazprom, Koreyaning Kogas, Xitoyning CNPC, Ozarbayjonning SOCAR va boshqalar misol bo'la oladi. XMI korporativ boshqaruv mezonlariga muvofiq boshqaruv, nazorat va tartibga solish organlarini ajratish orqali DKlar faoliyatini umumiy qismlarga ajratish va boshqaruvni qayta tuzish amalga oshirildi. Nihoyat,

tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanishni rag'batlantirish va qayta ishlash bo'yicha xususiy biznesni (klasterlarni) rivojlantirish uchun paxta va bug'doy narxlari erkinlashtirildi.

Xususiy jamg'arishga o'tish va global iqtisodiyotga integratsiyalashuv ham ichki, ham tashqi omillar uyg'unligi sifatida boshlandi. Ichki tomondan, birinchidan, yuqori demografik bosim mavjud. Shakllanayotgan shahar o'rta sinfi ko'pincha g'arbda ta'lim olgan, yuqori maosh, ish o'rinlari va liberal islohotlarni talab qiluvchi yosh malakali mutaxassislardan iborat. Hozirgi hukumat ish o'rinlari yaratish uchun mamlakatga kapital va infratuzilma, shuningdek, Global Qiymat Zanjirlari (GQZ) bilan samarali integratsiya orqali texnologiyalar transferi zarurligini anglaydi. Bu, ichki xususiy jamg'armaning rivojlanishi bilan birga, bank sektorining erkinlashtirilishi va milliy xususiy moliya tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun yo'naltirilgan yordam ko'rsatuvchi yangi Suveren jamg'armalar (SWF) orqali kengaytirilishining sababidir. Ikkinchidan, ichki ekologik bosimlar hukumatni xomashyo ishlab chiqarishni (masalan, gaz va ko'p suv talab qiladigan ekinlarni) modernizatsiya qilishga undamoqda, bu esa katta kapital talab qiluvchi investitsiyalarni taqozo etadi.

Biroq davlat jamg'arish modellaridagi o'zgarishlar milliy kapital jamg'arish tizimi joylashgan kengroq kontekstga nisbatan ham talqin qilinishi kerak. O'zbekistonni neoliberal global tartibga ochib beruvchi ikkita asosiy tashqi omil mavjud. Birinchidan, Xalqaro moliya institutlari (XMI) bilan aloqalarning chuqurlashuvi. Jahon banki guruhi davlat boshqaruvi reglamentlarini isloh qilish, korporativ boshqaruv tuzilmalariga rioya qilish va Davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlashda mamlakatga turli yo'llar bilan ko'maklashdi. Bunday islohotlar Jahon bankining 2018-yilda imzolangan "Bozor iqtisodiyotiga barqaror o'tish uchun" deb nomlangan siyosiy operatsiya hujjatida qayd etilganidek, iqtisodiyotda resurslar taqsimotining samaradorligi, barqarorligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan (Jahon banki, 2018). Bunday siyosatlar iqtisodiyotdagi zarur loyihalarni moliyalashtirish uchun kreditlar ajratishning sharti sifatida qo'yildi. Xuddi shu hujjatda shunday qayd etilgan: "O'tmishda O'zbekiston iqtisodiy boshqaruvga davlat yondashuvi orqali barqaror o'sishni ta'minlay oldi, ammo unda dinamizm va moslashuvchanlik yetishmasdi" (2018, 14-bet). Lagard (Lagarde) 2019-yil may oyida O'zbekistonga tashrifi chog'ida buni tasdiqladi: "Ammo bu investitsiyalar eng raqobatbardosh va daromadli firmalarga yo'naltiriladimi? Bu O'zbekistonda doimiy savol bo'lib kelgan. Javob: Ha – agar narx to'g'ri bo'lsa".

Xuddi shunday, XMI kun tartibi deregulyatsiya, makroiqtisodiy barqarorlik va mikroiqtisodiy muvozanatsizliklarga qaratilgan. Shunga qaramay, O'zbekiston hukumati bunday shartlar bo'yicha muzokaralar olib bora oldi va XMI bilan konstruktiv hamkorlik qildi. Hukumat ularning ekspertizasidan nafaqat energetika megaloyihalari uchun xalqaro tenderlarni loyihalashda foydalandi, balki xususiylashtirishga bosqichma-bosqich yondashuvni saqlab qolgan holda, masalan,

qayta tiklanadigan energiya va qishloq xo'jaligi sohalarida ijtimoiy va biznesni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlarni ham qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, yana bir global aktor ichki iqtisodiyotda o'z mavjudligini o'tkazmoqda. Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi orqali kiritayotgan investitsiyalari XMI va G'arb zanjirlariga muqobil ravishda infratuzilma va energetikaga kredit va investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini taqdim etishi mumkin. Xitoy O'zbekistonning asosiy savdo hamkoriga aylandi. Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi yiliga 20 foizga o'sib, 7 milliard AQSh dollaridan oshdi va bu O'zbekiston tashqi savdosining 18,4 foizini tashkil etadi (Dadaboev & Jalilova, 2021). Tariflarning pasaytirilishi natijasida O'zbekiston va Xitoy o'rtasida oraliq komponentlar va tabiiy resurslar savdosi jadallashdi. Transportdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun infratuzilma va energetikaga investitsiyalar o'smoqda. 2016-yil iyun oyida Toshkent O'zbekiston-Xitoy hamkorligining ramzi bo'lgan strategik infratuzilma – Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li va Qamchiq tunneli qurilishi yakunlanganini nishonladi. Loyihaning bosh pudratchisi "China Railway Tunnel" kompaniyasi edi.

Xitoy va O'zbekiston hamkorlari o'rtasidagi qo'shma investitsiya va hamkorlikning yangi shakllari, ayniqsa telekommunikatsiya va ishlab chiqarish sohasida texnologiyalar transferi va bandlik imkoniyatlarini yaratmoqda. 2019-yilda Xitoy Savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistondagi Xitoy TGI hajmi 3 milliard AQSh dollarini tashkil etdi va asosan nafaqat eksport, balki ichki bozor uchun ham kengayib borayotgan qurilish materiallari uchun yangi sement zavodlari, energetika-mineral majmuasi va qayta ishlash hamda agro-qayta ishlash sohalariga qaratildi. Biroq BRI (Bir makon, bir yo'l) hali ham raqobatbardosh va ekspluatatsion qazib olish va jamg'arish rejimlarida ishlaydi, uning taqsimot va rivojlanish natijalari faqat benefisiar davlatning strategiyasi va siyosati orqali shakllantirilishi mumkin (Mohan, 2021), bunda Rossiya, Turkiya va Yaqin Sharq kapitali kabi uchinchi tomonlardan ham teng masofada foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, 2016-yildan keyingi iqtisodiy islohotlar kapital jamg'arishga nisbatan bozorga yo'naltirilgan yondashuv foydasiga institutsional tuzilmaning qayta konfiguratsiyasiga olib keldi. Bu islohotlar ijtimoiy oqibatlari noma'lum bo'lgan ekspropriatsiya, proleterlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirishi ehtimoli yuqori. Xususi sektor yetakchiligidagi jamg'arish strategiyalari tengsizlikning kuchayishi va ijtimoiy ko'rsatkichlarning pasayishi bilan parallel ravishda o'sishga olib kelishi mumkin. To'lov balansining yangi raqamlarida tashqi qarz asosan XMI va Xitoydan olingan tashqi qarzlarning hisobiga yuqori bo'lib, u 2016 va 2019-yillar oralig'ida ikki baravar oshdi. Bu davlat aktivlarini talon-toraj qilishi, kapitalni chetga olib chiqib ketishi hamda ichki va tashqi xususi jamg'arish o'zgaruvchanligini kuchaytirishi mumkin bo'lgan yirtqich investitsiyalar xavfini oshirishi mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi kabi strategik tarmoqlarning xususiylashtirilishi (va oziq-ovqat narxlarining, ayniqsa bug'doy mahsulotlari kabi asosiy oziq-ovqat turlarining erkinlashtirilishi) ishlab

chiqarishning atomizatsiyasiga olib kelib, eng kambag'al fermerlar uchun yuqori xatarlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, turmush narxi oshishiga qarshi kurashishda taklifga yo'naltirilgan siyosatlarning (masalan, subsidiyalar va narx chegaralari) talabga yo'naltirilgan siyosatlar bilan almashtirilishi shahar va qishloq kambag'allarini ijtimoiy himoyasizlikka duchor qilishi mumkin.

Zamonaviy global neoliberal tartib undirib olish, jamg'arish va qayta taqsimlash kanallari o'rtasida davlat rejalashtirishi va markaziy muvofiqlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, COVID-19 pandemiyasi va Ukrainadagi urush kabi so'nggi shoklar gibrid jamg'arish shakllari faoliyat yuritayotgan hozirgi o'zaro bog'liqliklarning naqadar mo'rt ekanligini tasdiqladi. Davlat boshqaruvidagi jamg'arishning pasayishi past taqsimlash salohiyati evaziga yuz bermoqda, bu esa ijtimoiy tengsizlikni oshirishi mumkin. O'zbekiston sharoitida keskin bozorlashtirish ichki rivojlanish hisobiga ishlab chiqarish ijtimoiy munosabatlarining murakkab transformatsiyasini izdan chiqarish xavfini tug'diradi. Transmilliy korporatsiyalar O'zbekiston bozorida hali hukmronlik qilmayapti, chunki xususiylashtirish yaqinda boshlandi, biroq xalqaro hamjamiyat bank va savdo sohasidagi so'nggi islohotlarni olqishlamoqda. Mirziyoyev G'arb tomonidan Karimov yondashuvidan voz kechayotgan va uni o'zgartirayotgan shaxs sifatida tasvirlansa-da, uning siyosati oldingi 25 yillik davlat boshqaruvidagi jamg'arish strategiyasi tomonidan yo'lga qo'yilgan industrilashtirish yo'liga asoslanmoqda. Endigi masala shundaki, kapitalga ega bo'lgan qudratli mahalliy elita xorijiy kapitalning kirib kelishiga yo'l qo'ygan holda, uzoq muddatda munosib ish o'rinlari va texnologik o'zgarishlarni rag'batlantirib, qayta taqsimlash va ijtimoiy huquqlarni ta'minlay oladimi yoki yo'qmi.

5. Xulosalar

Ushbu maqola davlat boshqaruvidagi dastlabki jamg'arishni uning tarixiy va makoniy davomiyligi orqali muhokama qilish asnosida, bozorga o'tish bo'yicha adabiyotlarni davlat boshqaruvidagi jamg'arish yuzasidan qayta jonlangan bahslar bilan o'zaro bog'ladi. U uzoq muddatli istiqbolni qabul qilgan holda davlat boshqaruvidagi jamg'arishning imkoniyatlari, o'xshashliklari va cheklovlarini yoritib berdi hamda tarix davomida davlat tarkibiy o'zgarishlarni barqarorlashtirish uchun kapitalning jamlovchisi, muvofiqlashtiruvchisi va mulkdori bo'lib kelganini ko'rsatdi. Maqola kam o'rganilgan O'zbekiston misolidan foydalanib, davlat boshqaruvidagi jamg'arishni ideal bozorga o'tish jarayoniga zid narsa sifatida emas, balki uning dinamik (ammo vaziyat taqozosiga bog'liq) o'zgartiruvchi salohiyati nuqtai nazaridan tahlil qilinishi kerakligini ilgari surdi. Darhaqiqat, empirik dalillar neoliberal globallashtirish doirasida davlat-kapital gibridlarining neoliberalizmga bo'lgan va hozirgi shakllari o'rtasida institutsional o'xshashliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Buning uchun maqolada qo'shimcha qiymatning nafaqat xususiy foyda, balki boshqa maqsadlarda undirib olinishi va taqsimlanishi kanallari, shuningdek, davlat institutlari qanday qilib xususiy jamg'arishga imkon yaratishi

mumkinligi ko'rib chiqildi. Tarkibiy o'zgarishlar jamg'arish va taqsimlashning gibrid mexanizmlari tomonidan harakatlantiriladigan uzoq muddatli jarayonning natijasidir.

Kelgusi tadqiqotlar kun tartibi yuzasidan mulohazalar haqida so'z borganda, bugungi kunda kapitalizmni qanday tashkil etish borasidagi bahslar ko'plab ziddiyatlar va ochiq savollarni o'rtaga tashlamoqda. Birinchi masala shundaki, xususiy kapitalizm ham, davlat kapitalizmi ham yollanma ishchilarni ekspluatatsiya qiladi. Shunga qaramay, bu davlat qanday qilib aniq demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlagan holda, tarmoqlarni kamroq ekspluatatsiyaga asoslangan va moliyaviylashuv dinamikasiga kamroq moyil bo'lgan mehnat munosabatlari sari yuksaltiruvchi investitsiyalarni amalga oshirishi mumkinligi borasida ko'proq izlanishlarni talab etadi. O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, qishloq joylardagi yerlar hamon davlat mulki hisoblanadi, fermerlar mulkdan to'liq mahrum qilinmagan va faqat qisman proleterlashgan. Mulk huquqini jamoat (davlat) tasarrufida saqlab qolishning ijtimoiy va jamoaviy asosi mavjud bo'lib, yirik korxonalar ishlab chiqarish ekotizimi doirasida innovatsiyalar va taqsimotga oid ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan aniq missiyani bajarishi mumkin (Polanyi & MacIver, 1944). Ushbu institutsional tuzilmalarga eskirgan deb qaramaslik, aksincha, ularning real salohiyatini ham nazariy, ham empirik jihatdan tadqiq etish lozim.

Izohlar

1. Butun dunyoda paxta terimi asosan mexanizatsiyalashgan bo'lsa-da, O'zbekistonda paxta asosan davlat xizmatchilari va oliy o'quv yurtlari talabalarini (ishchi kuchini) safarbar qilish orqali qo'lda terilgan. Xalqaro tashkilotlar O'zbekiston hukumatini bolalar mehnati va inson huquqlari buzilishida qoralab kelishgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) paxta yig'im-terimida bolalar mehnati va majburiy mehnatdan foydalanish bo'yicha uchinchi tomon monitoringi hisoboti shuni ko'rsatdiki, 2016-yildan beri bolalar mehnati keng miqyosda qisqargan (XMT, 2022). Shuningdek, unda O'zbekiston hukumati mexanizatsiyalash rejasini boshlagani qayd etilgan (Swinkels va boshq., 2016).
2. 2015-yil 16-noyabrda men Samarqand viloyatidagi paxta qabul qilish va qayta ishlash punktiga tashrif buyurdim. Men u yerda farrosh bo'lib ishlaydigan va menga zavodni aylantirib ko'rsatgan ayol bilan suhbatlashdim. U bu yerda 30 yildan beri ishlar ekan. U (rus tilida) zavodda Metan qishlog'idan 400 ga yaqin odam ishlashini tushuntirdi. Zavodda ishchilar 24 soat davomida 3 smenada ishlaydi va ular oyiga o'rtacha 500.000 dan 600.000 so'mgacha (bu kuniga deyarli 5 dollarga teng, qishloq joylardagi o'rtacha ish haqidan yuqori) daromad topishadi. Dalalardan kelayotgan yuk mashinalari

paxta xomashyosini topshirish, yuklarini o'lchash va hujjatlarni olish uchun navbatda turishardi. Zavodda juda eski, lekin ishlaydigan paxta tozalash uskunalari mavjud bo'lib, ular paxtani barg va loydan tozalaydi, so'ngra chigit va tolalarni hamda paxta lintini ajratadi va ishchilar yordamida har kuni har biri 230 kg bo'lgan 200 ta toy qadoqlanadi. Ular Xitoy va Koreyaga eksport qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri Samarqand aeroporti terminaliga jo'natilar edi.

3. <https://cabar.asia/en/uzbekistan-government-debt-almost-doubled-in-two-years>.

Oshkor etish to'g'risidagi bayonot Muallif(lar) tomonidan hech qanday manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berilmagan.

Muallif haqida ma'lumot

Lorena Lombardozi Buyuk Britaniyadagi Ochiq universitetning (The Open University) iqtisodiyot bo'yicha katta o'qituvchisi. U PhD darajasini London universiteti qoshidagi SOAS (Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi)ning iqtisodiyot kafedrasida olgan. Uning doktorlik tadqiqoti O'zbekistonda bozorga o'tishda davlatning roli va uning oziq-ovqat iste'moliga ta'siriga qaratilgan. Akademik faoliyatga qaytishdan oldin Lorena 2014-yilda Lotin Amerikasida rivojlanish iqtisodchisi bo'lib, 2010-yildan 2012-yilgacha O'zbekistonda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining (UNODC) Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasida, 2007-2010 yillar oralig'ida esa Yevropa Komissiyasi hamda Italiya Tashqi ishlar vazirligida rivojlanish iqtisodiyoti, savdo va atrof-muhit siyosati sohasida ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akimov, A. V., & Dollery, B. (2006). Uzbekistan's financial system. An evaluation of twelve years of transition. *Problems of Economic Transition*, 48(12), 6–31.
2. Alami, I., & Dixon, A. D. (2020). State capitalism (s) redux? Theories, tensions, controversies. *Competition & Change*, 24(1), 70–94.
3. Alami, I., Dixon, A. D., & Mawdsley, E. (2021). State capitalism and the new global D/development regime. *Antipode*.
4. Amin, S. (2016). *Russia and the long transition from capitalism to socialism*. Monthly Review Press.
5. Amsden, A. (2001). *The rise of the 'rest' – challenges to the west from late-industrializing economies*. Oxford University Press.
6. Andreoni, A. (2022). Compressed development and the political economy of developmentalism. *Development and Change*.
7. Bhaduri, A., & Marglin, S. (1990). Unemployment and the real wage: The economic basis for contesting political ideologies. *Cambridge Journal of Economics*, 14(4), 375–393.
8. Bobojonov, I., Lamers, J. P., Bekchanov, M., Djanibekov, N., Franz-Vasdeki, J., Ruzimov, J., & Martius, C. (2013). Options and constraints for crop diversification: A case study in sustainable agriculture in Uzbekistan. *Agroecology and Sustainable Food Systems*, 37(7), 788–811.
9. Bremmer, I. (2008). The return of state capitalism. *Survival*, 50(3), 55–64.
10. Bremmer, I. (2010). *The End of the free market: Who wins the War between states and corporations?* Penguin Random House.
11. Bukharin, N. (1921). *ABC of communism*. Lyceum-literature department. Workers Party of America.
12. Buranelli, F. C. (2021). Central Asian regionalism or Central Asian order? Some reflections. *Central Asian Affairs*, 8(1), 1–26.
13. Byres, T. (2003). Chapter 11. Agriculture and development: The dominant orthodoxy and an alternative view. In H.-J. Chang (Ed.), *Rethinking development economics* (pp. 235–254). Anthem Press.
14. Chang, H.-J. (2009). Rethinking public policy in agriculture – lessons from history, distant and recent. *Journal of Peasant Studies*, 36(3), 477–515.
15. Chang, H. J., & Andreoni, A. (2021). Bringing production back into development: An introduction. *The European Journal of Development Research*, 33(2), 165–178.
16. Chang, H. J., & Nolan, P. (1995). Europe versus Asia: Contrasting paths to the reform of centrally planned systems of political economy. In H.-J. Chang & P. Nolan (Eds.), *The transformation of the communist economies* (pp. 3–45). Palgrave Macmillan.
17. Charnock, G., & Starosta, G. (2016). Introduction: The new international division of labour and the critique of political economy today. In G. Charnock

- & G. Starosta (Eds.), *The New international division of labour* (pp. 1–22). Palgrave Macmillan.
18. Cheng, S. K. (2020). Primitive socialist accumulation in China: An alternative view on the anomalies of Chinese ‘capitalism’. *Review of Radical Political Economics*, 52(4), 693–715.
 19. Dadabaev, T., & Djalilova, N. (2021). Connectivity, energy, and transportation in Uzbekistan’s strategy vis-à-vis Russia, China, South Korea, and Japan. *Asia Europe Journal*, 19(1), 105–127.
 20. Day, R. B. (1975). Preobrazhensky and the theory of the transition period. *Soviet Studies*, 27(2), 196–219.
 21. De Graaff, N. (2012). The hybridization of the state–capital nexus in the global energy order. *Globalizations*, 9(4), 531–545.
 22. Ellerman, D. (2003). On the Russian privatization debate. *Challenge*, 46(3), 6–28.
 23. FAO. (2017). *The state of food security and nutrition in Europe and Central Asia*.
 24. Fine, B., & Filho, S. (2014). In H. Weber (Ed.), *The politics of development: A survey* (pp. 154–166). Routledge.
 25. Gabor, D. (2020). Critical macro-finance: A theoretical lens. *Finance and Society*, 6(1), 45–55.
 26. Gevorkyan, A. V. (2018). *Transition economies: Transformation, development, and society in Eastern Europe and the former Soviet Union*. Routledge.
 27. Haberly, D., & Wójcik, D. (2017). Earth incorporated: Centralization and variegation in the global company network. *Economic Geography*, 93(3), 241–266.
 28. Hall, P., & Gingerich, D. (2009). Varieties of capitalism and institutional complementarities in the political economy: An empirical analysis. *British Journal of Political Science*, 39(3), 449–482.
 29. Harrison, M. (1985). Primary accumulation in the Soviet transition. *The Journal of Development Studies*, 22(1), 81–103.
 30. Hirschman, A. O. (1958). *The strategy of economic development*. Yale University Press.
 31. International Labour Organization, ILO. (2022). *Third-party monitoring of child labour and forced labour during the 2020 cotton harvest in Uzbekistan*. Fundamental Principles and Rights at Work Branch (FUNDAMENTALS).
 32. Kalecki, M. (1955). The problem of financing of economic development. *Indian Economic Review*, 2(3), 1–22.
 33. Karwowski, E. (2019). Towards (de-) financialisation: The role of the state. *Cambridge Journal of Economics*, 43(4), 1001–1027.
 34. Kattel, R., Mazzucato, M., Algers, J., & Mikheeva, O. *The Green Giant: New Industrial Strategy for Norway*.

35. Kay, C. (2009). Development strategies and rural development: Exploring synergies, eradicating poverty. *The Journal of Peasant Studies*, 36(1), 103–137.
36. Khan, M. H., & Jomo, K. S. (2000). *Rents, rent-seeking and economic development: Theory and evidence in Asia*. Cambridge University Press.
37. Kornai, J. (1992). *The socialist system: The political economy of communism*. Princeton University Press.
38. Kotz, D. M. (2002). Globalization and neoliberalism. *Rethinking Marxism*, 14(2), 64–79.
39. Kurlantzick, J. (2016). *State capitalism: How the return of statism is transforming the world*. Oxford University Press.
40. Lenin, V. I. (1921). Fourth anniversary of the October revolution. In *Selected works* (Vol. 6, pp. 500–508). Lawrence & Wishart London.
41. Lewis, W. A. (1954). *Economic development with unlimited supplies of labour*.
42. Lin, J. Y., & Li, Z. (2008). Policy burden, privatization and soft budget constraint. *Journal of Comparative Economics*, 36(1), 90–102.
43. Lo, D., & Zhang, Y. (2011). Making sense of China's economic transformation. *Review of Radical Political Economics*, 43(1), 33–55.
44. Lombardozi, L. (2019). Can distortions in agriculture support structural transformation? The case of Uzbekistan. *Post-Communist Economies*.
45. Lombardozi, L. (2020). Patterns of accumulation and social differentiation through a slow-paced agrarian market transition in post-Soviet Uzbekistan. *Journal of Agrarian Change*, 20(4), 637–658.
46. Lombardozi, L. (2021). Unpacking state-led upgrading: Empirical evidence from Uzbek horticulture value chain governance. *Review of International Political Economy*, 28(4), 947–973.
47. Lombardozi, L. (2022). The marketisation of life: Entangling social reproduction theory and regimes of patriarchy through women's work in post-Soviet Uzbekistan. *Review of International Political Economy*, 29(6), 1870–1893.
48. Lombardozi, L., & Djanibekov, N. (2021). Can self-sufficiency policy improve food security? An inter-temporal assessment of the wheat value-chain in Uzbekistan. *Eurasian Geography and Economics*, 62(1), 1–20.
49. Marx, K. ([1867] 1976). *Capital*. Vol. 1. Penguin.
50. Melvin, N. J. (2004). *Uzbekistan: Transition to authoritarianism*. Taylor & Francis.
51. Millar, J. R. (1978). A note on primitive accumulation in Marx and Preobrazhensky. *Soviet Studies*, 30(3), 384–393.
52. Mkandawire, T. (2001). Thinking about developmental states in Africa. *Cambridge Journal of Economics*, 25(3), 289–313.
53. Mohan, G. (2021). Below the belt? Territory and development in China's international rise. *Development and Change*, 52(1), 54–75.

54. Mundle, S. (1985). The agrarian barrier to industrial growth. *The Journal of Development Studies*, 22(1), 49–80.
55. Muradov, B., & Ilkhamov, A. (2014). Uzbekistan's cotton sector: Financial flows and distribution of resources. *Open Society Foundations*, 3–64.
56. Nolan, P. (1995). *China's rise, Russia's fall: Politics, economic and planning in the transition from stalinism*. Macmillan Press.
57. Nolke, A. (2014). *Multinational corporations from emerging markets: State capitalism 3.0*. Springer.
58. Palley, T. I. (2005). From Keynesianism to neoliberalism: Shifting paradigms in economics. In A. Saad-Filho & D. Johnston (Eds.), *Neoliberalism: A Critical Reader* (pp. 20–29). Pluto Press.
59. Polanyi, K., & MacIver, R. M. (1944). *The great transformation* (Vol. 2, p. 145). Beacon press.
60. Popov, V., & Chowdhury, A. (2015). What Uzbekistan tells us about industrial policy that we did not know?. Available at SSRN 2668220.
61. Preobrazhensky, E. A. (1965). *The new economics*. trans. B. Pearce.
62. Resnick, S., & Wolff, R. (1993). State capitalism in the USSR? A high-stakes debate. *Rethinking Marxism*, 6(2), 46–68.
63. Sachs, J. (1992). The economic transformation of Eastern Europe: The case of Poland. *The American Economist*, 36(2), 3–11.
64. Saith, A. (2013). *The agrarian question in socialist transitions*. Routledge.
65. Schiff, M., & Valdes, A. (1998). *The plundering of agriculture in developing countries*. International Agricultural Development, 226–33.
66. Sidel, J. T. (2015). Primitive accumulation and 'progress' in Southeast Asia: The diverse legacies of a common (s) tragedy. *TRaNS: Trans-Regional and -National Studies of Southeast Asia*, 3(01), 5–23.
67. Swinkels, R., Romanova, E., & Kochkin, E. (2016). *Assessing the social impact of cotton harvest mechanization in Uzbekistan*. World Bank.
68. The World Bank. (2018). *Report No. 125008-UZ. Uzbekistan: Reforms for a Sustainable Transformation toward a Market Economy*.
69. Tsang, S. (1996). Against 'big bang' in economic transition: Normative and positive arguments. *Cambridge Journal of Economics*, 20(2), 183–193.
70. UNCTAD Report. (2015). *Uzbekistan's cotton value chain*.
71. Van Apeldoorn, B., de Graaff, N., & Overbeek, H. (2012). The reconfiguration of the global state–capital nexus. *Globalizations*, 9(4), 471–486.
72. Veldwisch, G. J., & Spoor, M. (2008). Contesting rural resources: Emerging 'forms' of agrarian production in Uzbekistan. *The Journal of Peasant Studies*, 35(3), 424–451.
73. Wade, R. (2018). The developmental state: Dead or alive? *Development and Change*, 49(2), 518–546.
74. Weber, I. M. (2021). *How China escaped shock therapy: The market reform debate*. Routledge.